



**ZAMONAVIY KLINIK
LABORATOR TASHXISI
DOLZARB MUAMMOLARI**
**xalqaro ilmiy-amaliy
anjuman**



27 dekabr 2022 yil



O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi
www.ssv.uz

Toshkent tibbiyot akademiyasi
www.tma.uz

**POSTKOVID SINDROMIDA HOMILADORLARDA
LEYKOTSITLAR NAZORATI**
Zaynutdinova D.L.
Toshkent tibbiyot akademiyasi

Dunyo bo'ylab homilador ayollarda 2021-yil Covid - 19 dan kasallanish 3500000 va o'lim soni 12300 ni tashkil etdi (worldometer.info). Homilador ayol sog'ligi nafaqat O'zbekiston, balki umumjahon mamlakatlarining tibbiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki bu nafaqat onada, shu bilan birga bolada ham turli kasalliklar, og'ir asoratlar hamda nogironlik sonining ko'payishiga olib keladi. Xitoyning mustaqil biologlari SARS-CoV-2 eritrotsitlardagi gemoglobinga xujum qilishini xabar qilishdi. Moskva, 17-aprel –RIA News ma'lumotlariga ko'ra to'qimalarning kislorodga ochligini keltirib chiqaradigan Covid-19 gemoglobindan temirni "yilib oladi" degan faraz, bioinformatika olimlari shu paytgacha faqat komyuter modellari asosida tasdiqlangan. Olimlar tomonidan bu yangi shtammdagi virus turi o'pkadan tashqari umumiyligini qon tarkibidagi gemoglobin va eritrotsitlarga ko'rsatkichlariga ham ta'sir o'tkazishi aniqlandi. Rus ommaviy axborot vositalari Covid-19 pnevmoniyaga emas, balki leykozga olib keladi degan fikrni ilgari surishgan.

Metodlar. Tadqiqot uchun klinik material 2021-yil davomida Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasining homilador ayollar patologiyasi bo'limida postkovid sindromi bilan davolangan 26 nafar homilador ayollar kasallik tarixidagi umumiyligini qon tahlili ma'lumotlaridan olindi. Bemorlarning yoshi 19-39 yosh, o'rtacha yosh ko'rsatkichi $26,59 \pm 1,62$ ni tashkil etdi. Umumiyligini qon tahlilidagi leykotsitlar umumiyligini miqdori o'rnatildi.

Natijalar. Homilador ayollar homilaning rivojlanish bosqichiga ko'ra 3 guruhga ajratildi. I guruh ya'ni homiladorlikning 1 – uc hoyligi 8 ta bemorda, II guruh ya'ni homiladorlikning 2 – uch oyligi 12 ta bemordava III guruh ya'ni homiladorlikning 3 – uch oyligi 6 ta bemorlarda qayd e'tildi.

Leykotsit umumiyligini 9,0 – 15,0 * 10^9 g/l gacha bo'lgan bemorlar soni – 18 ta (69,23%), 9,0 - 4* 10^9 g/l gacha bo'lgan bemorlar soni – 8 ta (30,77%) ekanligi aniqlandi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Covid-19 og'ir darajada o'tkazgan homiladorlarda II guruh ya'ni homiladorlikning 2 - uch oyligidagi bemorlar eng katta qismni tashkil etdi. Turli bosqichlardagi homiladorlarda postkovid sindromida leykotsitlar umumiyligini soniga ko'ra 9,0 – 15,0 * 10^9 g/l gacha bo'lgan bemorlar 69,23% ni tashkil etdi.

Adabiyotlar.

1. Бабаджанова Ш.А., Курбонова З.Ч., Муминов О.А. Частота тромбоэмбологических осложнений у больных с коронавирусной инфекцией // Назарий ва клиник тиббиёт. – 2021. - №5. – С. 146-149.

2. Бабаджанова Ш.А., Курбонова З.Ч., Мадрахимов А.Л. и др. Диагностика геморрагического синдрома у беременных // Актуальные научные исследования в современном мире. - 2017. - №2-3 (22). - С. 55-60.

3. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Диагностика и лечение приобретенной тромбоцитопатии: методические рекомендации. – Ташкент, 2018. – 21 с.
4. Курбонова З. Ч., Бабаджанова Ш.А. Коронавирус инфекциясида гемостаз патологиясини лаборатор ташхислаш ва даволаш: услубий тавсиянома. Тошкент, 2022. – 20 с.
5. Курбонова ЗЧ, Бабаджанова ША, Муминов ОА. Лабораторный мониторинг патологии коагуляционного гемостаза у больных COVID-19 // Назарий ва клиник тиббиёт. – 2021. – С. 149-151.
6. Курбонова ЗЧ, Муминов ОА. COVID-19 этиологияси ва патогенези тұғрисидаги замонавий талқын // Назарий ва клиник тиббиёт. – 2022. - №5. – С. 84-86.
7. Kurbonova Z.Ch., Xo'shboqova G.O., Alimova U.O. Covid-19 bo'lgan bemorlarda qon korsatkichlari // Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi. - 2021. - №1. – С. 31-34.

HOMILADORLARDA GEMOGLOBIN, ERITROTSIT VA RANG KO'RSATKICHLARINI ANIQLASH AHAMIYATI

Zaynutdinova D.L., Xurramova D.I.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

Gematologik diagnostika usullari an'anaviy tarzda eng keng tarqalgan tekshirishlardir. Hozirgi vaqtida ko'plab klinik diagnostik laboratoriyalarda qon hujayralarini hisoblash va tahlil qilish uchun murakkablik darajalari turlicha bo'lgan hematologik analizatorlar ishlataladi [5]. Sitologik tekshiruvlar hematologik kasalliklar diagnostikasida muhim ahamiyatga ega. Ularni amalga oshirish klinik diagnostik laboratoriyalarda va maxsus hematologiya laboratoriyalarda amalga oshiriladi [1, 3]. Hematologik usullar bilan diagnostika qilingan kasalliklarning eng muhimlari anemiyalar, gemotopoietik to'qima o'smalari hisoblanadi. Hematologik testlar organizmning ko'pgina kasalliklarida javobini baholash, kasallik og'irligini va ularning davolash samaradorligini aniqlash uchun ishlataladi [6].

Qon - murakkab suyuqlik bo'lib, plazma va qon shaklli elementlaridan iborat: eritrositlar-qizil qon hujayralari, leykotsitlar-oq qon hujayralari va trombotsitlar-qon plastinkalari [4].

Homilador ayol sog'ligi nafaqat O'zbekiston, balki umumjahon mamlakatlarining tibbiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'gan dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki bu nafaqat onada, shu bilan birga bolada ham turli kasalliklar, og'ir asoratlar hamda nogironlik sonining ko'payishiga olib keladi. Vaqtida qilingan qon tahlillari, uning to'g'ri interpretatsiyasi nafaqat diagnostikada balki, aniq diagnoz qo'yishda, davo muolajalarini qay tarzda boshlash, qanday tartibda davom ettirishda juda katta yordam beradi. Barcha kasalliklarni aniqlashda umumiyligi qon tahlili – laborator diagnostikaning eng keng tarqalgan va qonning